NATIONAL QUALITY ASSURANCE AGENCY FOR EDUCATION

NQAAE

UNDER THE ADMINISTRATION OF THE PRESIDENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

UMUMMILLIY
SO‘ROVNOMA

Ochiq fikr — kuchli ta’lim!

AKADEMIK LITSEYLARDA

TA’LIM MUHITI, O‘QUV JARAYONI VA FAOLIYAT YURITISH



AKADEMIK LITSEYLARDA TA’LIM MUHITI, O‘QUV JARAYONI VA FAOLIYAT YURITISH SHART-SHAROITLARI SIFATI

(o‘quvchilar va pedagoglar o‘rtasida o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari)

Toshkent – 2026

Mundarija

I. KIRISH 3

1.1. Tahlilning dolzarbligi 3

1.2. Tadqiqot maqsadi va qamrovi 4

1.3. Asosiy natijalarning qisqacha mazmuni 4

II. METODOLOGIK YONDASHUV VA ASOSIY TUSHUNCHALAR 7

2.1. Ma'lumotlar manbai va tahlil qamrovi 7

2.2. Respondentlar tarkibi va asosiy tushunchalar 7

2.3. So'rovnoma tuzilishi va baholash yo'nalishlari 8

2.4. Ma'lumotlarni qayta ishlash va ko'rsatkichlarni hisoblash usullari 10

2.5. Natijalarni toifalash va talqin qilish tamoyillari 11

2.6. Ochiq javoblarni mazmuniy tahlil qilish 12

III. AKADEMIK LITSEYLARDA TA'LIM MUHITI, O'QUV JARAYONI VA FAOLIYAT YURITISH SHART-SHAROITLARINING UMUMIY HOLATI HAMDA TARKIBIY TAHLILI 14

3.1. Umummilliy so'rovnomada o'quvchilarning ishtiroki tahlili 14

3.2. Umummilliy so'rovnomada pedagoglarning ishtiroki tahlili 16

3.3. Umumiy ishtirokchilar tahlili 18

3.4. Hududlarni natija darajasi bo'yicha guruhlash 19

3.5. Ta'lim sifati va o'quv jarayoni bo'yicha natijalar 21

3.6. Ta'lim resurslari va infratuzilma tahlili 24

3.7. Ta'lim tizimida qo'shimcha imkoniyatlar tahlili 26

3.8. O'quvchilarning ochiq javoblari tahlili 29

3.9. Akademik litsey o'qituvchilari nazarida ta'lim jarayoni va shart-sharoitlar 31

3.10. Pedagoglar bahosida o'quvchilarni oliy ta'lim tashkilotlariga tayyorlash darajasi 32

3.11. Pedagoglarning ochiq javoblari tahlili 34

3.12. Xalqaro tajriba: Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya va Estoniya 36

IV. ASOSIY XULOSALAR VA TIZIMLI MUAMMOLAR 39

V. YAKUNIY XULOSA 42

VI. FOYDALANILGAN MANBALAR 43

I. KIRISH

1.1. Tahlilning dolzarbligi

Akademik litseylar umumiy o‘rta ta’lim va oliy ta’lim o‘rtasidagi muhim institutsional bo‘g‘in bo‘lib, iqtidorli yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, ularda chuqurlashtirilgan bilim va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish hamda oliy ta’limga maqsadli tayyorlashda alohida o‘rin tutadi. Shu bois akademik litseylardagi ta’lim sifati, o‘quv muhiti, pedagoglar salohiyati va moddiy-texnik shart-sharoitlar mamlakat inson kapitalini rivojlantirish samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda ta’lim muassasalari faoliyatini baholashda faqat o‘quvchilarning akademik natijalari emas, balki ta’lim muhiti xavfsizligi, psixologik farovonlik, raqamli savodxonlik, pedagogik yondashuvlar sifati va bitiruvchilarning keyingi ta’lim bosqichidagi muvaffaqiyati ham inobatga olinadi.

Raqamli iqtisodiyot, sun’iy intellekt texnologiyalari va mehnat bozori talablarining jadal o‘zgarishi akademik litseylar oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Jahon iqtisodiy forumining baholashlariga ko‘ra, 2030-yilga borib mehnat bozorida talab etiladigan ko‘nikmalarning qariyb **39 foizi** o‘zgaradi[1]. Bu esa ta’lim dasturlarini muntazam yangilash, amaliy va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish hamda pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlashni talab etadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda akademik litseylar tarmog‘ini takomillashtirish, chuqurlashtirilgan ta’lim dasturlarini yangilash, raqamli texnologiyalarni joriy etish va o‘quvchilarning oliy ta’limga tayyorgarligini kuchaytirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq ta’lim sifati, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari, infratuzilma, psixologik muhit, xalqaro ta’lim elementlari hamda pedagoglarning kasbiy rivojlanish imkoniyatlari hududlar va akademik litseylar kesimida bir xil darajada shakllanmagan.

Shu bois akademik litseylarda ta’lim muhiti, o‘quv jarayoni va faoliyat yuritish shart-sharoitlarini o‘quvchilar hamda pedagoglar fikri asosida kompleks tahlil qilish, hududiy va institutsional tafovutlarni aniqlash, shuningdek, tizimni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash muhim ahamiyatga ega.

---

1 World Economic Forum. The Future of Jobs Report 2025.
URL: https://www.weforum.org/publications/the-future-of-jobs-report-2025 (06.06.2026).

1.2. Tadqiqot maqsadi va qamrovi

Mazkur axborot-tahliliy sharhning maqsadi 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari asosida akademik litseylarda **ta’lim sifati**, **o‘quv muhiti**, **infratuzilma**, **pedagoglar faoliyati**, **raqamli imkoniyatlar** va **o‘quvchilarning oliy ta’limga tayyorgarlik holatini kompleks baholashdan** iborat.

Tadqiqot 2026-yil 21-martdan 9-aprelga qadar o‘tkazilib, respublikaning barcha **14 ta** hududidagi **73 ta** akademik litseyni qamrab oldi. So‘rovnomada jami **27 077 nafar** respondent, jumladan **24 557 nafar** o‘quvchi va **2 520 nafar** pedagog ishtirok etdi. So‘rovnoma **o‘zbek**, **qoraqalpoq**, **rus** va **ingliz tillarida** tashkil etildi.

Tahlil doirasida ta’lim sifati va o‘quv jarayoni, chuqurlashtirilgan fanlarni o‘qitish, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari, baholash tizimining shaffofligi, darslik va kutubxona resurslari, IT va internet sharoitlari, sport infratuzilmasi, psixologik va ma’naviy-ma’rifiy muhit, qo‘shimcha ta’lim imkoniyatlari hamda o‘quvchilarni oliy ta’lim tashkilotlariga tayyorlash holati o‘rganildi.

Natijalar tavsifiy statistika, ijobiy javoblar ulushini hisoblash, shuningdek, hududlar, akademik litseylar va ixtisoslashuv sohalari kesimidagi qiyosiy tahlil asosida baholandi. O‘quvchilar va pedagoglarning ochiq javoblari alohida mazmuniy tahlil qilinib, ularda qayd etilgan taklif, shikoyat va ustuvor ehtiyojlar tizimlashtirildi.

Tadqiqot natijalari akademik litseylarda ta’lim sifatini oshirish, past natija qayd etgan tashkilotlar uchun manzilli rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish, resurslarni samarali taqsimlash, o‘quv dasturlarini takomillashtirish hamda dalillarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun empirik asos bo‘lib xizmat qiladi.

1.3. Asosiy natijalarning qisqacha mazmuni

Tadqiqot natijalari akademik litseylarda ta’lim sifati va o‘quv muhiti umumiy jihatdan ijobiy baholanganini ko‘rsatdi. Tahlil qilingan **24 ta** asosiy ko‘rsatkichning aksariyati bo‘yicha ijobiy baholar **75–90 foiz** oralig‘ida shakllangan.

Xususan, o‘quvchilarning **86 foizi** dars sifati va o‘qituvchilar mahoratidan, **92,8 foizi** esa chuqurlashtirilgan fanlarni o‘zlashtirish darajasidan qoniqish bildirgan.

Pedagoglarning **95,6 foizi** o‘quvchilar bilimini baholash tizimini shaffof deb baholagan. Shuningdek, o‘qituvchilarning **98,6 foizi** o‘quvchilarning oliy ta’lim tashkilotlariga tayyorgarlik darajasiga ijobiy baho bergan. Pedagog-respondentlarning **99,7 foizi** akademik litseylar o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni to‘liq yoki asosan bajarayotganini qayd etgan.

Shu bilan birga, natijalar hududlar va akademik litseylar o‘rtasida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko‘rsatdi.

Xususan, ta’lim sifati va o‘quv jarayoni bo‘yicha hududiy o‘rtacha ko‘rsatkich **69,8 ballni** tashkil etgan. Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida **86 balllik** eng yuqori natija qayd etilgan bo‘lsa, Toshkent shahrida ko‘rsatkich **51 ballni** tashkil etgan. Eng yuqori va eng past natijalar o‘rtasidagi **35 ballik** farq ta’lim sifatini ta’minlashda **hududiy nomutanosibliklar** saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi.

Akademik litseylar kesimida bo‘lsa o‘rtacha natija **71,4 ballni** tashkil etdi. Litseylarning **67,9 foizi** yuqori yoki barqaror natija qayd etgan bo‘lsa, **10,5 foizi** past va juda past toifaga kirgan. Eng yuqori va eng past natijali akademik litseylar o‘rtasidagi tafovut **45,3 ballni** tashkil etib, **ayrim tashkilotlarni manzilli qo‘llab-quvvatlash** zarurligini ko‘rsatdi.

O‘quvchilar uchun yaratilgan qo‘shimcha imkoniyatlar bo‘yicha respublika o‘rtacha ko‘rsatkichi **81 ballni** tashkil etgan. **To‘garaklar faoliyati** eng yuqori baholangan yo‘nalish bo‘lsa, **oliy ta’limga ishonch**, **psixologik muhit** va **ma’naviy-ma’rifiy sharoitlarni** yanada takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Ta’lim resurslari va infratuzilma tahlilida darslik hamda kutubxona resurslari nisbatan yuqori baholangan, sport infratuzilmasi, auditoriya va maishiy sharoitlar, shuningdek, ayrim hududlarda IT va internet ta’minoti nisbatan past natijalarni qayd etgan.

Tadqiqot pedagoglar faoliyati bilan bog‘liq qator muammolarni ham aniqladi.

Xususan, **xalqaro malaka oshirish va stajirovkalar** bilan qamrov **56,1 foizni**, **xalqaro ta’lim dasturlari bilan integratsiya** bo‘yicha ijobiy baholar esa **60,9 foizni** tashkil etgan.

Pedagoglarning **25 foizi ish yuklamasini yuqori** deb baholagan. Ochiq javoblarda **o‘qituvchilarni moddiy rag‘batlantirish**, **moddiy-texnik bazani mustahkamlash**, **malaka oshirish tizimini rivojlantirish** va **o‘quv adabiyotlarini yangilash** ustuvor masalalar sifatida qayd etilgan.

O‘quvchilar tomonidan bildirilgan **16 645 ta** mazmunli ochiq javobning asosiy qismi **ta’lim jarayoni va o‘quv dasturlarini takomillashtirish**, **bino va infratuzilmani yaxshilash** hamda **texnik jihozlarni modernizatsiya qilishga** qaratilgan.

Bu ta’lim sifati umumiy jihatdan ijobiy baholangan bo‘lsa-da, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini kengaytirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tizimli joriy etish, o‘quv dasturlarini yangilash, pedagoglarning xalqaro kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash hamda infratuzilmadagi hududiy tafovutlarni qisqartirish zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, akademik litseylar tizimida ta’lim sifati va oliy ta’limga tayyorlash bo‘yicha barqaror ijobiy natijalar shakllangan. Biroq mavjud salohiyatdan to‘liq foydalanish uchun ta’lim jarayonining amaliy yo‘naltirilganligini kuchaytirish, raqamli va moddiy-texnik infratuzilmani takomillashtirish, pedagoglarning kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda past natijali hudud va akademik litseylar uchun manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi.

II. METODOLOGIK YONDASHUV VA ASOSIY TUSHUNCHALAR

2.1. Ma’lumotlar manbai va tahlil qamrovi

Mazkur tahlilning asosiy empirik ma’lumotlar manbai sifatida 2026-yil 21-martdan 9-aprelga qadar akademik litseylar o‘quvchilari va pedagoglari o‘rtasida o‘tkazilgan Umummilliy so‘rovnoma natijalaridan foydalanildi.

Tadqiqot respublikaning barcha **14 ta** hududida joylashgan **73 ta** akademik litseyni qamrab oldi. So‘rovnomada jami **27 077 nafar** respondent, jumladan **24 557 nafar o‘quvchi** va **2 520 nafar** pedagog ishtirok etdi. So‘rovnoma o‘zbek, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida o‘tkazildi. Bu turli tillarda ta’lim oluvchi va faoliyat yurituvchi respondentlarning fikrlarini qamrab olish imkonini berdi.

Tadqiqot doirasida akademik litseylarda ta’lim sifati va o‘quv jarayoni, chuqurlashtirilgan fanlarni o‘qitish, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari, baholash tizimining shaffofligi, o‘quv dasturlarining zamonaviy talablarga muvofiqligi, ta’lim resurslari va infratuzilma, raqamli imkoniyatlar, psixologik muhit, qo‘shimcha ta’lim xizmatlari hamda o‘quvchilarni oliy ta’lim tashkilotlariga tayyorlash holati o‘rganildi.

Shuningdek, pedagoglarning kasbiy salohiyati, ish yuklamasi, moddiy-texnik sharoitlardan qoniqishi, malaka oshirish va xalqaro stajirovka imkoniyatlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish darajasi hamda ta’lim jarayonini takomillashtirishga oid fikrlari tahlil qilindi.

Tahlilda Umummilliy so‘rovnoma natijalari asosiy empirik manba hisoblanadi. OECD, UNESCO, Jahon banki, Jahon iqtisodiy forumi, Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya va Estoniya ta’lim tizimlariga oid materiallar esa natijalarni xalqaro yondashuvlar bilan qiyosiy talqin qilish hamda amaliy tavsiyalarni shakllantirishda metodologik asos sifatida qo‘llanildi.

2.2. Respondentlar tarkibi va asosiy tushunchalar

Tadqiqotda ikki asosiy respondentlar guruhi – **akademik litsey o‘quvchilari va pedagoglar** qamrab olindi. Mazkur yondashuv ta’lim muhiti va o‘quv jarayonini xizmatdan foydalanuvchilar hamda uni bevosita tashkil etuvchilar nuqtai nazaridan kompleks baholash imkonini berdi.

O‘quvchi-respondent – tadqiqot davrida akademik litseyning birinchi yoki ikkinchi bosqichida ta’lim olayotgan va so‘rovnomada ishtirok etgan shaxs.

Pedagog-respondent – akademik litseyda asosiy yoki o‘rindoshlik asosida pedagogik faoliyat yuritayotgan hamda so‘rovnoma savollariga javob bergan o‘qituvchi.

Akademik litsey – o‘quvchilarga tanlangan ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha chuqurlashtirilgan bilim berish, ularning intellektual qobiliyatini rivojlantirish va oliy ta’lim tashkilotlarida tahsil olishga maqsadli tayyorlashga ixtisoslashgan o‘rta maxsus ta’lim tashkiloti.

Ijobiy javoblar ulushi – muayyan savol bo‘yicha mazmunan ijobiy bahoni ifodalovchi javob variantlarini tanlagan respondentlar sonining mazkur savolga yaroqli javob bergan respondentlar umumiy soniga nisbatini ko‘rsatuvchi foiz ko‘rsatkichi.

Tematik ko‘rsatkich – ta’lim sifati, infratuzilma, raqamli imkoniyatlar, psixologik muhit yoki oliy ta’limga tayyorgarlik kabi muayyan yo‘nalishga tegishli savollar natijalarini umumlashtiruvchi ko‘rsatkich.

Hududiy ko‘rsatkich – muayyan hududda joylashgan akademik litseylar respondentlarining javoblari asosida shakllantirilgan umumlashtirilgan natija.

Institutsional ko‘rsatkich – alohida akademik litsey respondentlarining javoblari asosida mazkur ta’lim tashkiloti uchun hisoblangan natija.

Sohaviy ko‘rsatkich – akademik litseylarning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, pedagogika, tibbiyot, ijtimoiy-gumanitar va amaliy-texnik sohalar kesimida shakllantirilgan umumlashtirilgan natija.

Ochiq javob – respondentga oldindan belgilangan javob variantlari taqdim etilmasdan, o‘z fikri, taklifi yoki shikoyatini erkin matn shaklida bildirish imkonini beruvchi javob turi.

Mazkur tushunchalar tadqiqot natijalarini yagona yondashuv asosida talqin qilish, hududlar va akademik litseylar o‘rtasidagi ko‘rsatkichlarni o‘zaro qiyoslash hamda tizimli muammolarni aniqlash uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

2.3. So‘rovnoma tuzilishi va baholash yo‘nalishlari

So‘rovnoma yopiq va ochiq turdagi savollardan tashkil topdi.

Yopiq savollar akademik litseylar faoliyatining muayyan jihatlarini miqdoriy baholashga, ochiq savollar esa respondentlarning muammo, ehtiyoj va takliflarini batafsil o‘rganishga qaratildi.

Tadqiqot savollari mazmunan quyidagi asosiy yo‘nalishlarga birlashtirildi:

1-yo‘nalish – ta’lim sifati va o‘quv jarayoni.

Bunda darslar sifati, pedagoglarning kasbiy mahorati, chuqurlashtirilgan fanlarni o‘qitish darajasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarining tashkil etilishi hamda baholash tizimining shaffofligi o‘rganildi.

2-yo‘nalish – ta’lim resurslari va infratuzilma.

Mazkur yo‘nalishda darslik va o‘quv adabiyotlari, kutubxona resurslari, auditoriyalar holati, maishiy sharoitlar, sport obyektlari, kompyuter texnikasi, internet va Wi-Fi imkoniyatlari baholandi.

3-yo‘nalish – qo‘shimcha ta’lim va rivojlanish imkoniyatlari.

Bunda fan va sport to‘garaklari, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, olimpiada va tanlovlarga tayyorgarlik, psixologik qo‘llab-quvvatlash hamda o‘quvchilarning individual rivojlanish imkoniyatlari o‘rganildi.

4-yo‘nalish – o‘quvchilarni oliy ta’lim tashkilotlariga tayyorlash.

Ushbu blokda chuqurlashtirilgan ta’limning samaradorligi, kasb va ta’lim yo‘nalishini tanlashga ko‘maklashish, oliy ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlik, xalqaro ta’lim elementlari va o‘quvchilarning kelgusi ta’lim trayektoriyasiga ishonchi baholandi.

5-yo‘nalish – pedagoglarning mehnat va kasbiy rivojlanish sharoitlari.

Bunda pedagogik ish yuklamasi, moddiy-texnik ta’minot, raqamli resurslardan foydalanish, malaka oshirish, xalqaro stajirovkalar va moddiy rag‘batlantirish mexanizmlariga oid fikrlar o‘rganildi.

6-yo‘nalish – ochiq taklif va shikoyatlar.

Respondentlarga akademik litseylar faoliyatidagi asosiy muammolar, ularni bartaraf etish choralari hamda ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha erkin fikr bildirish imkoniyati berildi.

O‘quvchilar va pedagoglar uchun savollar ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni va tajribasidan kelib chiqib alohida shakllantirildi.

Shu bilan birga, ta’lim sifati, infratuzilma, raqamli sharoitlar va oliy ta’limga tayyorgarlik kabi o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarda ikki guruh fikrlarini qiyoslash imkonini beruvchi mazmunan yaqin savollar qo‘llanildi.

2.4. Ma’lumotlarni qayta ishlash va ko‘rsatkichlarni hisoblash usullari

Tahlil jarayonida ma’lumotlarni tizimlashtirish, guruhlash, tavsifiy statistika, ijobiy javoblar ulushini hisoblash, qiyosiy tahlil, mazmuniy tahlil va statistik umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Birlamchi bosqichda har bir savol bo‘yicha javoblar soni va ularning foizdagi ulushi hisoblandi. Foiz ko‘rsatkichini aniqlashda quyidagi umumiy yondashuv qo‘llanildi:

$$\mathbf{P = N_i / N \times 100,}$$

bunda:

P – muayyan javob varianti yoki ijobiy javoblar ulushi;

N_i – tegishli javob variantini tanlagan respondentlar soni;

N – mazkur savolga yaroqli javob bergan respondentlarning umumiy soni.

Ijobiy javoblar ulushini hisoblashda savol mazmuniga qarab **«to‘liq qoniqaman»**, **«qoniqaman»**, **«yuqori»**, **«yaxshi»**, **«to‘liq ta’minlangan»**, **«yetarli darajada»**, **«ha»** va shu kabi ijobiy mazmunni ifodalovchi javoblar umumlashtirildi.

Keyingi bosqichda bir yo‘nalishga tegishli savollar natijalari tematik bloklar bo‘yicha umumlashtirilib, **100 ballik** ko‘rsatkichda ifodalandi.

Ushbu yondashuv mazmunan turlicha bo‘lgan ko‘rsatkichlarni yagona o‘lchov asosida qiyoslash, respublika, hudud, akademik litsey va ixtisoslashuv sohalari kesimidagi tafovutlarni aniqlash imkonini berdi.

Natijalar quyidagi tahlil darajalarida o‘rganildi:

respublika darajasida – akademik litseylar tizimining umumiy holatini baholash;

hududlar kesimida – ta’lim sifati va shart-sharoitlardagi hududiy tafovutlarni aniqlash;

akademik litseylar kesimida – yuqori va past natija qayd etgan ta’lim tashkilotlarini belgilash;

ixtisoslashuv sohalari kesimida – pedagogika, tibbiyot, ijtimoiy-gumanitar va amaliy-texnik yo‘nalishlardagi natijalarni qiyoslash;

respondentlar guruhlari kesimida – o‘quvchilar va pedagoglarning baholari o‘rtasidagi umumiylik va farqlarni aniqlash.

Qiyosiy tahlil jarayonida respublika bo‘yicha o‘rtacha natijalar, eng yuqori va eng past ko‘rsatkichlar hamda ular o‘rtasidagi ballik tafovutlar hisobga olindi.

Bu usul ta’lim sifati va resurslar taqsimotidagi nomutanosibliklarni aniqlash hamda manzilli chora-tadbirlarni talab qiluvchi hudud va akademik litseylarni belgilash imkonini berdi.

2.5. Natijalarni toifalash va talqin qilish tamoyillari

Tadqiqot natijalari tizimli talqin qilish maqsadida **100 ballik** ko‘rsatkichda shakllangan natija darajalari bo‘yicha toifalarga ajratildi.

Bunda:

80 ball va undan yuqori natija – yuqori daraja;

70 balldan 80 ballgacha – barqaror daraja;

60 balldan 70 ballgacha – o‘rtacha daraja;

50 balldan 60 ballgacha – past daraja;

50 balldan past natija – juda past daraja sifatida talqin qilindi.

Yuqori darajadagi natija tegishli yo‘nalishda ijobiy amaliyotlar va barqaror institutsional salohiyat shakllanganini ifodalaydi.

Barqaror daraja asosiy jarayonlar qoniqarli tashkil etilganini, biroq ayrim rivojlanish zaxiralari mavjudligini ko‘rsatadi.

O‘rtacha daraja muayyan yo‘nalishda ijobiy natijalar bilan bir qatorda sezilarli kamchiliklar ham mavjudligini anglatadi.

Past va juda past natijalar esa tizimli muammolar saqlanib qolayotgani hamda manzilli rivojlantirish choralari zarurligini ko‘rsatadi.


Toifalash natijalari hudud yoki akademik litsey faoliyatiga yakuniy huquqiy yoki ma’muriy baho berish uchun emas, balki mavjud holatni diagnostika qilish, nisbatan kuchli va zaif yo‘nalishlarni aniqlash hamda resurslarni ustuvor vazifalarga yo‘naltirish uchun qo‘llanildi.

Ta’lim sifatiga oid ko‘rsatkichlarni talqin qilishda faqat umumiy o‘rtacha natijalar bilan cheklanilmadi. Bir xil o‘rtacha ball ortida turli hududlar, akademik litseylar yoki baholash komponentlari bo‘yicha sezilarli farqlar mavjud bo‘lishi mumkinligi inobatga olindi. Shu bois har bir tematik ko‘rsatkich uning tarkibiy qismlari va qiyosiy konteksti bilan birgalikda tahlil qilindi.

2.6. Ochiq javoblarni mazmuniy tahlil qilish

So‘rovnomaning ochiq savollari o‘quvchilar va pedagoglarning oldindan belgilangan javob variantlari bilan cheklanmagan fikrlarini o‘rganishga xizmat qildi. Ochiq javoblar mazmuniy jihatdan o‘rganilib, taklif va shikoyatlarga ajratildi hamda takrorlanuvchi mavzular bo‘yicha guruhlandi.

O‘quvchilarning ochiq javoblarini tahlil qilishda **Google Docs[2] orqali shakllantirilgan ma’lumotlar bazasidan** foydalanildi. Tegishli savol bo‘yicha jami **24 350 nafar o‘quvchining** ma’lumotlari qayd etilgan. Shundan **207 nafar o‘quvchi ushbu savolga javob bermagan**. Taqdim etilgan javoblar tahlili natijasida **16 645 ta javob mazmunli** deb topildi. Ularning **15 308 tasi takliflar**, **1 337 tasi esa shikoyatlar** sifatida tasniflandi.



1-rasm. O‘quvchilarning ochiq javoblari tahlili.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

O‘quvchilarning fikrlari quyidagi asosiy mavzular bo‘yicha guruhlandi: o‘quv jarayoni va dasturlar, bino va infratuzilma, texnik jihozlar, pedagog kadrlar, imtihon va baholash tizimi, sport sharoitlari, oshxona faoliyati, to‘garaklar hamda qo‘shimcha ta’lim imkoniyatlari.

[2] So‘rovnoma tashkil qilingan elektron platformasi:
URL: https://drive.google.com/drive/folders/1NGAbRMA9WYkXvYQUCxTLOg88UdUlMohE

Pedagoglarning ochiq javoblari ham taklif va shikoyatlar kesimida tahlil qilindi. Jami **1 431 ta** taklif va **160 ta** shikoyat moddiy rag‘batlantirish, moddiy-texnik baza, malaka oshirish, darslik va o‘quv adabiyotlari, o‘quv dasturlari, oliy ta’lim bilan integratsiya va qabul jarayoni kabi mavzularga ajratildi.

Ayrim ochiq javoblarda bir vaqtning o‘zida bir nechta masala ko‘tarilgani sababli ular ko‘p mavzuli kodlash asosida tegishli mavzularga kiritildi. Shu bois ayrim mavzular bo‘yicha hisoblangan ulushlar yig‘indisi **100 foiz**ga teng bo‘lmasligi mumkin.

Bunday yondashuv respondent bildirgan barcha mazmunli fikrlarni saqlab qolish va muammolarning o‘zaro bog‘liqligini to‘liqroq aks ettirish imkonini beradi.

Ochiq javoblar natijalari yopiq savollar bo‘yicha shakllangan miqdoriy ko‘rsatkichlarni izohlash, past natijalarning ehtimoliy sabablarini aniqlash hamda amaliy taklif va tavsiyalarni respondentlarning real ehtiyojlari bilan bog‘lashda qo‘llanildi.

II bob bo‘yicha xulosa

Mazkur bobda tadqiqotning axborot va metodologik asoslari, so‘rovnoma qamrovi, respondentlar tarkibi, baholash yo‘nalishlari, asosiy tushunchalar, ma’lumotlarni qayta ishlash va natijalarni toifalash usullari bayon etildi.

Shuningdek, o‘quvchilar va pedagoglarning ochiq javoblarini mazmuniy tahlil qilish tartibi hamda natijalarni talqin qilishda inobatga olinishi lozim bo‘lgan cheklovlar yoritildi.

Mazkur metodologik yondashuv akademik litseylarda ta’lim sifati, o‘quv muhiti va faoliyat yuritish shart-sharoitlarini yagona mezonlar asosida baholash, hududlar, akademik litseylar va ixtisoslashuv sohalari o‘rtasidagi tafovutlarni aniqlash hamda dalillarga asoslangan amaliy takliflarni ishlab chiqish uchun zarur asosni shakllantiradi.


Keyingi boblarda ushbu yondashuvlar asosida umummilliy so‘rovnoma natijalari batafsil tahlil qilinadi.

III. AKADEMIK LITSEYLARDA TA’LIM MUHITI, O‘QUV JARAYONI VA FAOLIYAT YURITISH SHART-SHAROITLARINING UMUMIY HOLATI HAMDA TARKIBIY TAHLILI

3.1. Umummilliy so‘rovnomada o‘quvchilarning ishtiroki tahlili

Umummilliy so‘rovnoma doirasida respublika bo‘yicha faoliyat yuritayotgan **73 ta** akademik litseyning **24 557 nafar** o‘quvchisi ishtirok etdi. So‘rovnoma mamlakatning barcha **14 ta** hududini qamrab olgan.


Akademik litseylarda ta’lim olayotgan o‘quvchilarning ta’lim sifati, o‘quv jarayoni va mavjud shart-sharoitlarga nisbatan fikr-mulohazalarini keng qamrovda o‘rganish imkonini berdi.



2-rasm. O‘quvchilarning hududlar kesimidagi taqsimoti.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

Hududlar kesimida respondentlarning eng katta ulushi **Toshkent shahri (33 foiz)** va **Samarqand viloyati (13,3 foiz)** hissasiga to‘g‘ri keldi. Jinsiy tarkib deyarli muvozanatli bo‘lib, **ayollar – 50,5 foiz**, erkaklar – **49,5 foizni** tashkil etdi.



3-rasm. O‘quvchilarning kurslar va jins bo‘yicha tarkibi.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.


Ta’lim tashkilotlari kesimidagi tahlilga ko‘ra, eng yuqori ishtirok ulushi **Namangan davlat universiteti akademik litseyi** (3 foiz), **Jizzax davlat pedagogika universiteti akademik litseyi** (2,7 foiz), **Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti akademik litseyi** (2,5 foiz), **O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti akademik litseyi** (2,4 foiz) hamda **Nukus davlat pedagogika instituti akademik litseyi** (2,3 foiz) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Shuningdek, **Qoraqalpoq davlat universiteti**, **Buxoro davlat universiteti** va **Buxoro davlat tibbiyot instituti** akademik litseylarida ham respondentlar faolligi yuqori bo‘ldi.

Ta’lim tashkilotlari bo‘yicha respondentlar ulushining nisbatan bir xil shakllangani alohida akademik litsey ta’sirining cheklanganligini, natijalar esa butun akademik litseylar tizimining holatini xolis aks ettirayotganini ko‘rsatadi.

Yosh tarkibi tahliliga ko‘ra, respondentlarning asosiy qismini **16–17 yoshdagilar (84 foiz)** tashkil etdi. Shuningdek, **1-kurs o‘quvchilari – 52 foiz**, **2-kurs o‘quvchilari – 48 foiz** bo‘lib, har ikki kurs vakillari deyarli teng darajada qamrab olingan.

Akademik litseylarning joylashuvi bo‘yicha **92 foizi shahar**, **5 foizi tuman markazi** va **3 foizi qishloq** hududlarida joylashgan.




4-rasm. Akademik litseylarning joylashuv hududi bo‘yicha taqsimoti.

Manba: 2026 yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

3.2. Umummilliy so‘rovnomada pedagoglarning ishtiroki tahlili

Pedagoglar ishtirokida ham **Toshkent shahri** mutlaq yetakchilikni saqlab qolgan. **796 nafar** (31,6 foiz) pedagog qatnashgan. Bu respublikada ishtirok etgan har uch nafar pedagogdan biri Toshkent shahri hissasiga to‘g‘ri kelishini anglatadi.




5-rasm. So‘rovnomada ishtirok etgan pedagoglarning hududlar kesimidagi taqsimoti.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

Eng past ko‘rsatkichlar **Sirdaryo viloyatida – 34 nafar** (1,4 foiz), **Navoiy viloyatida – 81 nafar** (3,2 foiz), **Toshkent viloyatida – 86 nafar** (3,4 foiz) va **Surxondaryo viloyatida – 92 nafar** (3,7 foiz) qayd etilgan.

Tadqiqot natijalari akademik litseylarda ta’lim sifati bo‘yicha ijobiy tendensiyalar shakllanganini ko‘rsatmoqda.

Xususan, o‘quvchilarning **86 foizi** dars sifati va o‘qituvchilar mahoratidan, **92,8 foizi** chuqurlashtirilgan fanlarni o‘zlashtirish darajasidan qoniqish bildirgan.



6-rasm. Pedagoglar ishtiroki eng yuqori bo‘lgan akademik litseylar.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

Tahlilga ko‘ra, eng yuqori pedagoglarning ishtirok ulushi **Namangan davlat universiteti akademik litseyi** (3,1 foiz), **Jizzax davlat pedagogika universiteti akademik litseyi** (3,0 foiz) va **O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti akademik litseyiga** (2,7 foiz) to‘g‘ri keldi.

Qoraqalpoq davlat universiteti, **Buxoro davlat texnika universiteti**, **Nukus davlat pedagogika instituti** va **Buxoro davlat universiteti** akademik litseylarida ham o‘qituvchilarning ishtirok darajasi yuqori bo‘ldi.

O‘qituvchilarning **81,7 foizi** o‘quv dasturlari mehnat bozori talablariga mosligini, **95,6 foizi** esa baholash tizimining shaffofligini qayd etgan. Biroq hududlar o‘rtasidagi farqlar, psixologik muhit, sport infratuzilmasi, xalqaro ta’lim komponentlari va raqamli imkoniyatlar bo‘yicha hal qilinishi lozim bo‘lgan qator tizimli masalalar ham mavjudligini ko‘rsatadi.

Mazkur tahlil doirasida akademik litseylarda ta’lim sifati, o‘quv muhiti va shart-sharoitlar holati zamonaviy analitik yondashuvlar asosida baholanadi.

Tadqiqot jarayonida ta’lim sifati ko‘rsatkichlari, hududiy tafovutlar, o‘quvchilar va o‘qituvchilar baholari, infratuzilma ta’minoti hamda inson kapitalini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar o‘rganilib, akademik litseylar tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

3.3. Umumiy ishtirokchilar tahlili

Hududlar kesimida respondentlar taqsimoti tahlili tanlanmaning respublika bo‘yicha qamrovi bilan birga uning hududiy xususiyatlarini ham yaqqol namoyon etadi.

Eng yuqori ulush Toshkent shahri hissasiga to‘g‘ri keladi (33 foiz), bu esa poytaxtda akademik litseylar tarmog‘i va o‘quvchilar kontingentining nisbatan yuqori darajada jamlanganligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, **Samarqand viloyati** ham yuqori ko‘rsatkichni namoyon etgan (13,3 foiz) bo‘lib, mazkur hudud ta’lim infratuzilmasi rivojlangan yirik markazlardan biri hisoblanadi.

O‘rta darajadagi ishtirok ko‘rsatkichlari **Namangan** (7,2 foiz), **Buxoro** (6,9 foiz) va **Farg‘ona** (6,1 foiz) viloyatlarida qayd etilgan. Shuningdek, **Andijon** (5,4 foiz) va **Qashqadaryo** (5,3 foiz) viloyatlari ham **o‘rtacha ulushga** ega hududlar sifatida ajralib turadi.

Nisbatan **pastroq** ko‘rsatkichlar **Jizzax** viloyati va **Qoraqalpog‘iston Respublikasida** (4,1 foizdan), shuningdek **Xorazm** (3,7 foiz), **Surxondaryo** (3,4 foiz), **Toshkent** (3,0 foiz), **Navoiy** (2,6 foiz) va **Sirdaryo** (1,8 foiz) viloyatlarida kuzatiladi.

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bunday holatlar ta’lim tashkilotlari o‘rtasida resurslar taqsimoti bilan bir qatorda boshqaruv madaniyati, pedagogik liderlik va ta’lim muhitini tashkil etish darajasi bilan ham bog‘liq bo‘ladi[3].

Masalan, **Finlyandiya** va **Estoniya** tajribasida hududlar o‘rtasidagi tafovutlarni qisqartirish maqsadida yuqori natija qayd etgan ta’lim tashkilotlari tajribasini boshqa muassasalarga transfer qilish amaliyoti keng qo‘llaniladi[4].

Boshqa tomondan, hududlar kesimida kuzatilayotgan mazkur tafovutlar kelgusida ta’lim sifatidagi nomutanosibliklarni yanada kuchaytirishi mumkin. Natijada yuqori natija qayd etayotgan akademik litseylar va nisbatan past ko‘rsatkichli muassasalar o‘rtasidagi farqlar chuqurlashib borishi ehtimoli mavjud.

---

3 OECD (2016). School Leadership for Learning: Insights from TALIS 2013. OECD Publishing, Paris. URL: https://doi.org/10.1787/9789264258341-en (14.06.2026).

4 OECD (2012). Equity and Quality in Education: Supporting Disadvantaged Students and Schools. OECD Publishing, Paris.
URL: https://doi.org/10.1787/9789264130852-en (14.06.2026).

Shu nuqtai nazardan, akademik litseylar faoliyatini baholashda faqat umumiy respublika koʻrsatkichlariga tayanish emas, balki har bir hudud va akademik litsey kesimidagi natijalarni muntazam monitoring qilib borish, yuqori natija qayd etgan tashkilotlar tajribasini ommalashtirish hamda past koʻrsatkichli litseylar uchun manzilli rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Maʼlumotlar tahlili ayrim yirik akademik litseylarda respondentlar ulushining nisbatan yuqoriligini koʻrsatadi. Xususan, **Namangan davlat universiteti akademik litseyi** (3 foiz), **Jizzax davlat pedagogika universiteti akademik litseyi** (2,7 foiz) hamda undan keyingi qatorda joylashgan bir qator yirik taʼlim tashkilotlari (2,3–2,5 foiz atrofida) tanlanma shakllanishida yetakchi oʻrinni egallagan.

Bu holat mazkur akademik litseylarda oʻquvchilar kontingentining kattaligi va soʻrovnomadagi faol ishtirok bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, taqsimotda sezilarli notekislik kuzatiladi: aksariyat akademik litseylar tanlanmada **1–2 foiz** oraligʻidagi ulush bilan ishtirok etgan. Ayrim taʼlim tashkilotlari ulushi esa **1 foizdan** kam koʻrsatkichni tashkil etadi. Bu taqsimot soʻrovnomadagi ishtirok ulushlari farqini koʻrsatadi. Uning asosida litseylarning institutsional rivojlanishi yoki quvvati haqida xulosa chiqarish uchun qoʻshimcha maʼlumotlar talab etiladi.


3.4. Hududlarni natija darajasi boʻyicha guruhlash

Soʻrovnoma natijalari asosida hisoblangan koʻrsatkich akademik litseylarda taʼlim sifati va taʼlim muhitining umumiy holati respublika boʻyicha yuqori darajada shakllanganligini koʻrsatadi.

Tahlil qilingan **24 ta asosiy koʻrsatkichning** aksariyati boʻyicha ijobiy baholar **75–90 foiz** oraligʻida shakllangan. Eng yuqori natijalar **dars sifati**, **oʻqituvchilar mahorati**, **baholash tizimining shaffofligi** hamda **chuqurlashtirilgan fanlarni oʻqitish yoʻnalishlarida** qayd etilgan.

Shu bilan bir vaqtda **infratuzilma**, **sport obyektlari**, **xalqaro hamkorlik elementlari**, pedagoglarning **xorijiy tajriba almashuvi** va **psixologik muhit boʻyicha koʻrsatkichlar** nisbatan past shakllangan.

Akademik litseylar tizimini shartli ravishda **3 ta guruhga** ajratish mumkin:



7-rasm. Hududlarni natija darajasi bo‘yicha toifalash.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

Tahlilga ko‘ra, respublikadagi hududlarning **28,6 foizi** (4 ta hudud) yuqori natijali guruhga kirdi. Ushbu guruhni **Buxoro, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari** va **Qoraqalpog‘iston Respublikasi** tashkil etib, mazkur hududlarda ta’lim sifati, pedagoglar salohiyati va o‘quvchilarni oliy ta’limga tayyorlash ko‘rsatkichlari respublika o‘rtacha darajasidan yuqori baholandi.


Hududlarning **50 foizi** (7 ta hudud) barqaror guruhga mansub bo‘lib, **Samarqand, Namangan, Farg‘ona, Andijon, Navoiy, Jizzax** va **Xorazm** viloyatlarida ta’lim sifati bo‘yicha ijobiy natijalar qayd etilgan bo‘lsa-da, ayrim yo‘nalishlarda rivojlanish salohiyati saqlanib qolmoqda.

Shu bilan birga, **21,4 foiz** (3 ta hudud) xavf guruhini tashkil etdi. **Sirdaryo, Toshkent viloyati** va **Toshkent shahrida** psixologik muhit, infratuzilma va o‘quvchilar uchun yaratilgan qo‘shimcha imkoniyatlar bo‘yicha ko‘rsatkichlar respublika o‘rtacha darajasidan past shakllangan.

Respublika hududlarining 78,6 foizida akademik litseylarda so‘rovnoma asosidagi baholar barqaror yoki yuqori guruhga kirgan bo‘lib, **21,4 foiz hududda** manzilli islohotlar va yuqori natijali hududlar tajribasini joriy etish dolzarb hisoblanadi.

3.5. Ta’lim sifati va o‘quv jarayoni bo‘yicha natijalar

Hududlar kesimidagi indeks tahlili ta’lim sifati va o‘quv jarayoni darajasida sezilarli hududiy tafovutlar mavjudligini ko‘rsatdi. Respublika bo‘yicha **o‘rtacha ko‘rsatkich 69,8 ballni** tashkil etdi.



8-rasm. Ta’lim sifati va o‘quv jarayonining hududlar kesimidagi natijalari.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

Eng yuqori natijalar **Buxoro** va **Surxondaryo** viloyatlarida qayd etilib, har ikki hudud **86 ball** bilan yetakchilik qildi. Keyingi o‘rinlarda **Qashqadaryo viloyati – 83 ball**, **Qoraqalpog‘iston Respublikasi – 81 ball** va **Andijon viloyati – 74 ball** joylashdi. Mazkur hududlarda dars sifati, pedagoglar salohiyati va ta’lim jarayonini tashkil etish ko‘rsatkichlari respublika o‘rtacha darajasidan yuqori baholandi.

Eng past natijalar esa **Toshkent shahri – 51 ball**, **Toshkent viloyati – 52 ball** va **Sirdaryo viloyati – 57 ball** hissasiga to‘g‘ri keldi. **Jizzax**

va **Navoiy** viloyatlarida ham koʻrsatkich **64 ballni** tashkil etib, respublika oʻrtacha koʻrsatkichidan past baholandi.

Hududlarni koʻrsatkich darajalari boʻyicha taqsimlash natijalariga koʻra:

4 ta hudud (28,6 foiz) – **80 ball va undan yuqori** (yuqori daraja);

4 ta hudud (28,6 foiz) – **70 – 79 ball** (barqaror daraja);

3 ta hudud (21,4 foiz) – **60 – 69 ball** (oʻrtacha daraja);

3 ta hudud (21,4 foiz) – **50 – 59 ball** (past daraja).


Eng yuqori va eng past natijali hududlar oʻrtasida **35 ballik** farq (86 va 51 ball) mavjud.

Akademik litseylar kesimida respublika boʻyicha **oʻrtacha koʻrsatkich 71,4 ballni** tashkil etdi.

Eng yuqori natija Qarshi davlat texnika universiteti 2-son akademik litseyida qayd etilib, koʻrsatkich **96,4 ballni** tashkil etdi. Keyingi oʻrinlarda Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti akademik litseyi – **93,2 ball**, International Finance akademik litseyi – **92,1 ball**, Buxoro davlat tibbiyot akademik litseyi – **91,3 ball** hamda Andijon qishloq xoʻjaligi va agrotexnologiyalar instituti akademik litseyi – **90,7 ball** joylashdi.

Eng past koʻrsatkichlar Toshkent arxitektura-qurilish universiteti akademik litseyi – **51,1 ball**, Chirchiq davlat pedagogika universiteti akademik litseyi – **51,2 ball**, Shahrisabz davlat pedagogika instituti akademik litseyi – **54,7 ball**, Toshkent davlat texnika universiteti 1-son akademik litseyi – **57,3 ball** va Oʻzbekiston Milliy universiteti S. Sirojiddinov nomidagi akademik litseyi – **58,9 ball** hissasiga toʻgʻri keldi.

Akademik litseylarning **67,9 foizi** yuqori va barqaror natija qayd etgan boʻlsa, **10,5 foizi** past va juda past toifaga kirdi. Eng yuqori va eng past natijalar oʻrtasida **45,3 balllik** tafovut (96,4 va 51,1 ball) mavjud.



9-rasm. Ta’lim sifati va o‘quv jarayonining akademik litseylar kesimidagi natijalari.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

Sohalar kesimidagi tahlil natijalariga ko‘ra, **amaliy-texnik soha** eng yuqori natijani qayd etib, o‘rtacha **89,7 ballni** tashkil qildi. Keyingi o‘rinlarda **tibbiyot sohasi – 87,9 ball**, **pedagogika sohasi – 80,1 ball** va **ijtimoiy-gumanitar soha – 79,3 ball** joylashdi.

Amaliy-texnik va tibbiyot sohalaridagi yuqori baholarning sabablarini aniqlash uchun laboratoriya mashg‘ulotlari, moddiy-texnika bazasi va ta’lim muhitiga oid qo‘shimcha ma’lumotlarni o‘rganish zarur. Pedagogika va ijtimoiy-gumanitar sohalarida esa ta’lim sifati barqaror bo‘lsa-da, ayrim akademik litseylarda ko‘rsatkichlar o‘rtasida sezilarli tafovut saqlanib qolmoqda.

Sohalar kesimidagi eng yuqori va eng past natijalarni taqqoslash quyidagilarni ko‘rsatadi:


Pedagogika sohasi: 86,4–54,6 ball (31,8 ball farq);

Tibbiyot sohasi: 92,6–56,1 ball (36,5 ball farq);

Ijtimoiy-gumanitar soha: 84,5–53,2 ball (31,3 ball farq);

Amaliy-texnik soha: 96,4–55,3 ball (41,1 ball farq).

Tahlil natijalari amaliy-texnik va tibbiyot sohalarida ta’lim sifati yuqori darajada shakllanganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, pedagogika va ijtimoiy-gumanitar sohalarda hamda barcha sohalarda past natija qayd etgan akademik litseylarda yuqori natijali muassasalar tajribasini ommalashtirish va manzilli rivojlantirish choralarini amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.




10-rasm. Ta’lim sifati ko‘rsatkichlarining ixtisoslashuv sohalari kesimidagi natijalari.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

3.6. Ta’lim resurslari va infratuzilma tahlili

O‘quvchilar baholari asosida hisoblangan ko‘rsatkichga ko‘ra, **ta’lim resurslari va infratuzilmaning respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichi 61,8 ballni** tashkil etdi. Bu mazkur yo‘nalishda hududlar o‘rtasida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Tarkibiy ko‘rsatkichlar kesimida **darslik va kutubxona resurslari eng yuqori natijani qayd etib – 83 foizni** tashkil qildi. Keyingi o‘rinlarda **IT va internet sharoitlari – 75 foiz** bo‘lsa, **sport infratuzilmasi – 58,8 foiz** va **auditoriya hamda maishiy sharoitlar – 58,6 foiz** eng past baholangan yo‘nalishlar bo‘ldi.




11-rasm. Ta’lim resurslari va infratuzilmaning tarkibiy ko‘rsatkichlari.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

Hududlar kesimida **Buxoro viloyati** (77,8 foiz) eng yuqori natijani qayd etdi. Shuningdek, **Qashqadaryo** (72,3 foiz), **Qoraqalpog‘iston Respublikasi** (72,7 foiz) va **Surxondaryo viloyati** (71,3 foiz) ham yuqori baholandi. Eng past natijalar esa **Toshkent shahri** (45,2 foiz), **Toshkent viloyati** (49,4 foiz) va **Sirdaryo viloyati** (47,3 foiz) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Yo‘nalishlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich **Buxoro viloyatidagi darslik va kutubxona resurslari** (83 foiz) bo‘lsa, eng past ko‘rsatkich **Toshkent viloyatidagi sport infratuzilmasida** (24 foiz) qayd etildi.




12-rasm. Ta’lim resurslari va infratuzilmaning hududlar kesimidagi natijalari.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

Ta’lim resurslari bilan ta’minlanganlik nisbatan yuqori darajada shakllangan bo‘lsa-da, auditoriyalar holati, maishiy sharoitlar va ayniqsa sport infratuzilmasini yaxshilash respublikadagi aksariyat hududlar uchun ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda.

Akademik litseylar ixtisoslashuvi kesimida eng yuqori natija **tibbiyot sohasida – 92,4 ball** qayd etildi. Keyingi o‘rinlarda **pedagogika – 89,7 ball**, **ijtimoiy-gumanitar – 86,3 ball** va **amaliy-texnik soha – 82,9 ball** joylashdi. Eng yuqori va eng past sohalar o‘rtasidagi farq **9,5 ball**ni tashkil qildi.

Respublika bo‘yicha pedagoglar fikri tahliliga ko‘ra, **auditoriya va maishiy sharoitlar** (85 foiz) hamda **darslik va kutubxona resurslari** (84,5 foiz) eng yuqori baholangan. Shu bilan birga, **sport infratuzilmasi** (79,7 foiz) hamda **IT va internet sharoitlari** (75 foiz) nisbatan past ko‘rsatkichlarni qayd etib, ushbu yo‘nalishlarda rivojlanish zaxiralari mavjudligini ko‘rsatdi.



13-rasm. Infratuzilma ko‘rsatkichlarining ixtisoslashuv sohalari va respublika kesimidagi natijalari.


Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

Shuningdek, eng yuqori individual natija **Toshkent davlat texnika universiteti akademik litseyida** (pedagogika yo‘nalishi) **– 99,1 ball**, eng past natija esa **Toshkent shahar pedagogika akademik litseyida – 58,3 ball** qayd etildi. Ular o‘rtasidagi tafovut **40,8 ballni** tashkil etadi.

3.7. Ta’lim tizimida qo‘shimcha imkoniyatlar tahlili

Tahlilga ko‘ra, ta’lim **tizimida qo‘shimcha imkoniyatlar bo‘yicha respublika o‘rtacha ko‘rsatkichi 81 ballni** tashkil etdi. Bu o‘quvchilar uchun yaratilgan qo‘shimcha rivojlanish imkoniyatlari umumiy jihatdan yuqori darajada shakllanganini ko‘rsatadi.

Hududlar kesimida **Buxoro viloyati – 86 ball**, **Surxondaryo viloyati – 84 ball** va **Qashqadaryo viloyati – 82 ball** eng yuqori natijalarni qayd etdi. Eng past ko‘rsatkichlar esa **Toshkent viloyati – 53 ball**, **Toshkent shahri – 56 ball** va **Sirdaryo viloyati – 58 ball** hissasiga to‘g‘ri keldi. Eng yuqori va eng past natijalar o‘rtasidagi farq **33 ball**ni tashkil etdi.



14-rasm. Ta’lim tizimidagi qo‘shimcha imkoniyatlarning hududlar kesimidagi natijalari.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

Tarkibiy ko‘rsatkichlar tahliliga ko‘ra, **to‘garaklar faoliyati – 88 ball** bilan eng yuqori baholangan bo‘lsa, **psixologik muhit – 81 ball**, **ma’naviy-ma’rifiy muhit – 80,7 ball** va **oliy ta’limga ishonch – 70,1 ball** nisbatan past ko‘rsatkichlarni qayd etdi.

Ko‘rsatkich darajalari bo‘yicha hududlar taqsimotiga ko‘ra, **4 ta hudud** (28,6 foiz) **80 balldan** yuqori, **3 ta hudud** (21,4 foiz) 70–79 ball, **4 ta hudud** (28,6 foiz) 60–69 ball va **3 ta hudud** (21,4 foiz) 50–59 ball oralig‘ida baholandi.

Akademik litseylarda o‘quvchilar uchun yaratilgan qo‘shimcha imkoniyatlar bo‘yicha so‘rov natijalari **umumiy ijobiy tendensiyani** ko‘rsatdi.

Xususan, **fan to‘garaklari va olimpiadalarga tayyorgarlik tizimi bo‘yicha o‘quvchilarning 88 foizi**, **psixologik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha 81 foizi**, **ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar bo‘yicha 80,7 foizi** ijobiy fikr bildirgan.

Oliy ta’lim tashkilotlariga kirish imkoniyatiga nisbatan esa o‘quvchilarning **70,1 foizi «to‘liq ishonaman»**, **25,4 foizi «ishonaman, lekin qo‘shimcha tayyorgarlik kerak»** deb javob bergan. **Umumiy ijobiy ishonch darajasi 95,5 foizni** tashkil etgan.




15-rasm. Ta’lim tizimidagi qo‘shimcha imkoniyatlarning tarkibiy ko‘rsatkichlari.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

Bu natijalar akademik litseylarda o‘quvchilarning **darsdan tashqari rivojlanishi, psixologik qo‘llab-quvvatlanishi va keyingi ta’lim bosqichiga tayyorlanishi uchun zarur muhit umumiy jihatdan ijobiy shakllanganini** ko‘rsatadi.

Fan to‘garaklari va olimpiadalarga tayyorgarlik bo‘yicha **eng yuqori ijobiy natijalar** Qarshi davlat texnika universiteti 2-son akademik litseyi va «International Finance» akademik litseyida **100 foizdan**, Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti akademik litseyi va Buxoro davlat tibbiyot instituti akademik litseyida **99 foizdan**, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali akademik litseyida **98 foiz** qayd etilgan.



16-rasm. Ta’lim tizimidagi qo‘shimcha imkoniyatlarning akademik litseylar kesimidagi natijalari.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

Shu bilan birga, mazkur yo‘nalish bo‘yicha **salbiy javoblarning nisbatan yuqori ulushi** Toshkent arxitektura-qurilish universiteti akademik litseyida **10,9 foiz**, Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti akademik litseyida **9,6 foiz**, «International Business» akademik litseyida **9 foiz**, Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali huzuridagi akademik litseyda **8,7 foiz** va Samarqand davlat universiteti akademik litseyida **8,1 foizni** tashkil etgan.

Tarkibiy yo‘nalishlar tahlilida **fan to‘garaklari va olimpiadalarga tayyorgarlik tizimi bo‘yicha ijobiy javoblar 88 foizni** tashkil etgan. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni **56,9 foiz o‘quvchi «juda qiziqarli», 23,8 foiz «asosan qiziqarli»** deb baholagan. **Umumiy ijobiy ko‘rsatkich 80,7 foizni** tashkil etgan. Psixologik qo‘llab-quvvatlash xizmati bo‘yicha **54 foiz «juda yaxshi», 27 foiz «yaxshi»** deb javob bergan va **ijobiy baholar jami 81 foizni** tashkil etgan.

Oliy ta’lim tashkilotlariga kirish imkoniyatiga nisbatan ishonch esa **eng yuqori ijobiy natijani** namoyon etgan: **70,1 foiz o‘quvchi «to‘liq ishonaman»**, **25,4 foiz «ishonaman, lekin qo‘shimcha tayyorgarlik kerak»** deb javob bergan. Natijada **ijobiy ishonch darajasi 95,5 foizni** tashkil etgan.


Shu bilan birga, **o‘quvchilarning 25,4 foizi qo‘shimcha tayyorgarlik zarurligini bildirgani raqobatbardosh qabul jarayoniga tayyorgarlikni yanada kuchaytirishga ehtiyoj mavjudligini** ko‘rsatadi.

3.8. O‘quvchilarning ochiq javoblari tahlili

So‘rovnoma doirasida **24 350 nafar o‘quvchidan 16 645 ta mazmunli ochiq javob** olindi. Ularning **15 308 tasi** (91,97 foiz) takliflar, **1 337 tasi** (8,03 foiz) esa shikoyatlardan iborat bo‘lib, o‘quvchilar asosan ta’lim sifatini takomillashtirishga qaratilgan konstruktiv fikrlarni bildirgan.

Eng ko‘p takliflar **o‘quv jarayoni va dasturini takomillashtirish** (2 763 ta), **bino va infratuzilmani yaxshilash** (2 417 ta) hamda **texnik jihozlarni modernizatsiya qilish** (1 432 ta) bo‘yicha qayd etildi. Shuningdek, imtihon va baholash tizimi, sport infratuzilmasi hamda oshxona faoliyatini yaxshilashga oid takliflar ham yuqori ulushni tashkil etdi.

Shikoyatlar tarkibida ham asosiy muammolar **o‘quv jarayoni va dasturi** (243 ta), **bino va infratuzilma** (173 ta) hamda **texnik jihozlanish** (90 ta) bilan bog‘liq ekani aniqlandi. Bu mazkur yo‘nalishlar o‘quvchilar uchun eng dolzarb masalalar bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi.



17-rasm. O‘quvchilarning ochiq javoblari tarkibi va asosiy yo‘nalishlari.

Manba: 2026 yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

Ochiq javoblar tahlili o‘quvchilarning asosiy ehtiyojlari ta’lim sifati, zamonaviy infratuzilma va o‘quv muhitini yanada takomillashtirishga qaratilganini ko‘rsatdi.

O‘quvchilarning ochiq javoblari asosida shakllantirilgan «so‘zlar bulutida» **«o‘quv»**, **«dastur»**, **«infratuzilma»**, **«ta’mirlash»**, **«jihoz»** va **«bino»** kabi so‘zlarning ustuvorligi ta’lim jarayonini takomillashtirish hamda moddiy-texnik sharoitlarni yaxshilashga bo‘lgan ehtiyojni aks ettiradi.

Shu bilan birga, «**imtihon**», «**baholash**», «**sertifikat**», «**sport**» va «**oshxona**» kabi so‘zlarning faol qo‘llanilishi o‘quvchilar uchun ta’lim sifati bilan bir qatorda baholash tizimi, jismoniy tarbiya va kundalik o‘quv muhitini yaxshilash masalalari ham muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.



18-rasm. O‘quvchilarning ochiq javoblari so‘zlar buluti.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.


3.9. Akademik litsey o‘qituvchilari nazarida ta’lim jarayoni va shart-sharoitlar

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, ta’lim sifatini belgilovchi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha ko‘rsatkichlar umumiy jihatdan ijobiy shakllangan. Eng yuqori natija **o‘quvchilar o‘zlashtirishini baholashda shaffoflik** bo‘yicha qayd etilib, respondentlarning **95,6 foizi** baholash tizimini ijobiy baholagan.

Moddiy-texnik baza bo‘yicha respondentlarning **76,2 foizi** ta’lim tashkilotlari to‘liq yoki yetarli darajada ta’minlanganini baholagan. Biroq ayrim hududlarda moddiy-texnik ta’minot darajasi bo‘yicha sezilarli tafovutlar saqlanib qolmoqda.

IT va internet ta’minoti bo‘yicha ijobiy baholar ulushi **73,8 foizni** tashkil etdi. Eng yuqori natijalar **Namangan** (88 foiz) va Toshkent viloyatida (86 foiz) qayd etilgan bo‘lsa, **Andijon** (46 foiz) va **Jizzax** (54 foiz) viloyatlarida mazkur ko‘rsatkich respublika o‘rtacha darajasidan past baholandi.

O‘qituvchilarning ish yuklamasi bo‘yicha respondentlarning **40,8 foizi** yuklama maqbul darajada ekanini, **34,2 foizi** o‘rtacha, **25 foizi** esa yuqori ekanini qayd etdi. Bu ayrim akademik litseylarda pedagogik yuklamani qayta ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.



19-rasm. Pedagoglar nazarida ta’lim sifati va ish yuklamasi.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

3.10. Pedagoglar bahosida o‘quvchilarni oliy ta’lim tashkilotlariga tayyorlash darajasi

Tahlilga ko‘ra, akademik litseylarda ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha ko‘rsatkichlar umumiy jihatdan ijobiy shakllangan. Eng yuqori natija **o‘quvchilar o‘zlashtirishini baholash shaffofligi** bo‘yicha qayd etilib, respondentlarning **95,6 foizi** baholash tizimi to‘liq yoki asosan shaffof ekanini ta’kidlagan.

Baholash shaffofligi bo‘yicha eng yuqori natijalar **Sirdaryo**, **Surxondaryo** va **Buxoro viloyatlarida** qayd etildi. Ushbu hududlarda respondentlarning **99–100 foizi** baholash tizimini shaffof deb baholagan. Nisbatan past ko‘rsatkichlar **Toshkent shahri** (93 foiz), **Namangan** (93 foiz) va **Toshkent viloyatida** (94 foiz) kuzatildi.

Moddiy-texnik baza bo‘yicha o‘qituvchilarning **76,2 foizi** ta’lim muassasalari to‘liq yoki yetarli darajada ta’minlanganini baholagan. Bunda **Buxoro** (92 foiz), **Sirdaryo** (94 foiz) va **Navoiy** (93 foiz) viloyatlari yetakchilik qildi. Eng past natijalar esa **Toshkent viloyati** (52 foiz), **Namangan** (57 foiz) va **Xorazm** (55 foiz) viloyatlarida qayd etildi.


IT va internet ta’minoti bo‘yicha ijobiy baholar ulushi **73,8 foiz** bo‘lib, ayrim hududlarda raqamli infratuzilmani rivojlantirish zarurligi qayd etilgan.

Mazkur yo‘nalishda **Namangan** (88 foiz), **Toshkent** (86 foiz) va **Xorazm** (83 foiz) viloyatlari eng yuqori ko‘rsatkichlarni qayd etgan bo‘lsa, **Andijon viloyati** (46 foiz), **Jizzax viloyati** (54 foiz) va **Farg‘ona viloyatida** (61 foiz) mazkur ko‘rsatkich respublika o‘rtacha darajasidan past shakllangan.

O‘qituvchilarning **40,8 foizi** ish yuklamasini maqbul, **34,2 foizi** o‘rtacha deb baholagan, **25 foizi** esa ish yuklamasi yuqori ekanini bildirgan. Bu ayrim akademik litseylarda pedagogik yuklamani qayta taqsimlash va mehnat sharoitlarini optimallashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, **o‘qituvchilar ish yuklamasi** tahliliga ko‘ra, yuqori ish yuklamasi eng ko‘p **Namangan** (57 foiz), **Navoiy** (57 foiz) va **Qashqadaryo** (53 foiz) viloyatlarida qayd etilgan. Nisbatan maqbul holat esa **Jizzax** (16 foiz), **Qoraqalpog‘iston Respublikasi** (18 foiz) va Buxoro viloyatida (20 foiz) kuzatildi.

Akademik litseylarda baholash tizimining shaffofligi yuqori darajada shakllangan bo‘lsa-da, moddiy-texnik baza, IT infratuzilmasi va o‘qituvchilar ish yuklamasi bo‘yicha hududlar o‘rtasida sezilarli tafovutlar saqlanib qolmoqda.



20-rasm. Pedagoglar baholaridagi hududiy tafovutlar.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

O‘qituvchilar baholariga ko‘ra, akademik litseylar bo‘yicha **o‘rtacha ko‘rsatkich 78,9 ballni** tashkil etdi. Eng yuqori natija **tibbiyot yo‘nalishidagi litseylarda – 83,6 ball**, keyingi o‘rinlarda **amaliy-texnik – 80,4 ball**, **pedagogika – 77,8 ball** va **ijtimoiy-gumanitar – 74,1 ball** qayd etildi.


Toifalar o‘rtasidagi farq **9,5 ballni** tashkil qildi.

Shuningdek, o‘qituvchilarning **98,6 foizi** o‘quvchilarning oliy ta’lim tashkilotiga tayyorgarligini, **88,6 foizi** esa ilg‘or ta’lim usullarini ijobiy baholagan.

Biroq **xalqaro dasturlar bilan integratsiya** bo‘yicha ijobiy baholar **60,9 foizni** tashkil etgani ushbu yo‘nalishda rivojlanish imkoniyatlari saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi.

Tahlilga ko‘ra, tibbiyot va amaliy-texnik yo‘nalishlarda ta’lim sifati nisbatan yuqori shakllangan.

Pedagogika va ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishlarda esa xalqaro ta’lim elementlarini kengaytirish, chuqurlashtirilgan ta’lim mazmunini boyitish hamda o‘quv dasturlarini zamonaviy kompetensiyalar asosida takomillashtirish ta’lim sifatidagi tafovutlarni qisqartirishning asosiy omillaridan hisoblanadi.



21-rasm. Pedagoglar bahosida ta’lim sifati va o‘quvchilarni oliy ta’limga tayyorlash darajasi.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

3.11. Pedagoglarning ochiq javoblari tahlili


So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, o‘qituvchilar tomonidan **1 431 ta taklif** va **160 ta shikoyat** bildirilgan. Bu o‘qituvchilarning akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha faol fuqarolik pozitsiyasiga ega ekanini hamda muammolarni hal etishga qaratilgan amaliy takliflar ustunligini ko‘rsatadi.

Takliflar tahliliga ko‘ra, eng dolzarb masala **o‘qituvchilar maoshi va moddiy rag‘batlantirish** (28,4 foiz) bo‘lib, bu pedagoglarning mehnatini munosib baholashga bo‘lgan ehtiyoj yuqoriligini anglatadi.

Keyingi o‘rinlarda **moddiy-texnik bazani yaxshilash** (27,7 foiz), **o‘qituvchilar malakasini oshirish va treninglar** (24,3 foiz) hamda **darsliklar va o‘quv adabiyotlarini yangilash** (19,6 foiz) qayd etildi.

Shuningdek, **o‘quv dasturlarini takomillashtirish**, **oliy ta’lim bilan integratsiyani kuchaytirish** va **qabul jarayonini takomillashtirish** bo‘yicha ham salmoqli takliflar bildirilgan.

Shikoyatlar tarkibida ham aynan shu yo‘nalishlar yetakchilik qildi. Xususan, **moddiy-texnik baza va jihozlar** (28,9 foiz), **o‘qituvchilar maoshi va moddiy rag‘batlantirish** (25,4 foiz), **malaka oshirish tizimi** (24,3 foiz) hamda **darsliklar va o‘quv adabiyotlari** (21,4 foiz) bo‘yicha eng ko‘p murojaatlar qayd etildi. Bu esa mazkur muammolar alohida muassasalarga emas, balki tizim darajasidagi masalalar ekanini ko‘rsatadi.



22-rasm. Pedagoglarning ochiq javoblari tarkibi va asosiy yo‘nalishlari.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

Takliflar va shikoyatlar o‘rtasidagi yuqori uyg‘unlik ta’lim sifatiga ta’sir ko‘rsatayotgan asosiy omillar aniq shakllanganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, **pedagoglarni rag‘batlantirish**, ta’lim **muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash** va **uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini takomillashtirish** eng ustuvor yo‘nalishlar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Pedagog xodimlarning ochiq javoblari asosida shakllantirilgan «so‘zlar bulutida» **«moddiy»**, **«rag‘batlantirish»**, **«maosh»**, **«o‘qituvchilar»**, **«texnik»** va **«baza»** kabi so‘zlarning ustuvorligi **ish haqi va moddiy rag‘batlantirish tizimini** takomillashtirish hamda ta’lim tashkilotlarining **moddiy-texnik sharoitlarini** yaxshilashga bo‘lgan ehtiyojni aks ettiradi. **O‘quv xonalarini zamonaviy jihozlar va zarur adabiyotlar bilan ta’minlash** masalalari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, **«malaka»**, **«trening»**, **«boshqaruv»**, **«hujjatbozlik»** va **«yuklamalar»** kabi so‘zlarning faol qo‘llanilishi **pedagoglarning kasbiy rivojlanishi**, **boshqaruv samaradorligini oshirish** va **ortiqcha ma’muriy yuklamalarni qisqartirish** zaruratini ko‘rsatadi.



23-rasm. Pedagoglarning ochiq javoblari asosida so‘zlar buluti.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

3.12. Xalqaro tajriba: Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya va Estoniya.

Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, ta’lim tizimida yuqori natijalarga erishish faqat o‘quv dasturlarini takomillashtirish bilan emas, balki pedagoglarni qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish va kasbiy rivojlantirishning yaxlit tizimini shakllantirish orqali ta’minlanadi. Shu bois so‘nggi yillarda ko‘plab davlatlar ta’lim islohotlarida aynan pedagog omilini strategik resurs sifatida ko‘rmoqda.

Finlyandiya tajribasi. Finlyandiya ta’lim tizimida pedagoglik eng nufuzli kasblardan biri hisoblanadi. Mamlakatda pedagog bo‘lish uchun magistr darajasi majburiy bo‘lib, pedagoglarni tanlash jarayoni yuqori raqobat asosida amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, pedagoglarga yuqori darajada akademik avtonomiya berilgan bo‘lib, ular o‘quv jarayonini tashkil etishda keng vakolatlarga ega. Ortiqcha hisobot va byurokratik jarayonlarning minimallashtirilgani pedagoglarga asosiy e’tiborni ta’lim sifatiga qaratish imkonini beradi[5].

5 Finnish National Agency for Education. Finnish Education in a Nutshell.
URl: https://www.oph.fi/en/statistics-and-publications/publications/finnish-education-nutshell (02.06.2026).

Singapur tajribasi. Singapurda pedagoglar siyosati inson kapitalini rivojlantirish strategiyasining markaziy elementi hisoblanadi. Har bir pedagog uchun yillik kasbiy rivojlanish dasturi shakllantiriladi va o‘rtacha 100 soatdan ortiq malaka oshirish imkoniyati yaratiladi[6].

Pedagoglarni baholash tizimi o‘quvchilar natijalari, innovatsion faoliyat, kasbiy rivojlanish va ta’lim muassasasi rivojiga qo‘shgan hissasi asosida amalga oshiriladi. Yuqori natija qayd etgan pedagoglar uchun qo‘shimcha moliyaviy va kasbiy rag‘batlantirish mexanizmlari joriy qilingan.

Natijada Singapur PISA xalqaro baholash dasturlarida muntazam ravishda yetakchi davlatlar qatorida qayd etilib kelmoqda[7].

Janubiy Koreya tajribasiga ko‘ra, pedagoglarni tanlash va tayyorlash tizimi yuqori raqobatga asoslangan. Pedagoglar uchun kasbiy o‘sishning aniq karyera trayektoriyasi shakllangan bo‘lib, ularning xizmat faoliyati muntazam baholab boriladi.

Shu bilan birga, davlat tomonidan pedagoglarning ijtimoiy maqomini saqlash va rag‘batlantirishga katta e’tibor qaratiladi. Ta’lim sohasi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining asosiy drayverlaridan biri sifatida qaraladi.

Ma’lumot uchun: Koreyada *pedagog kasbi aholi o‘rtasida eng yuqori ishonch va nufuzga ega kasblardan biri hisoblanadi[8].*

Estoniya tajribasi. Estoniya raqamli ta’lim sohasidagi muvaffaqiyati bilan xalqaro miqyosda tan olingan davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan.

Har bir ta’lim muassasasi raqamli ta’lim muhitiga integratsiya qilingan bo‘lib, pedagoglar uchun elektron resurslar, onlayn ta’lim platformalari va raqamli baholash instrumentlari keng joriy etilgan.

Natijada Estoniya so‘nggi yillarda Yevropa mamlakatlari orasida ta’lim sifati bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlarni namoyon qilmoqda[9].

---

[6] https://www.oecd.org/en/publications/talis-2018-results-volume-i_1d0bc92a-en/full-report/component-10.html (14.06.2026)

7 Ministry of Education, Singapore. Professional Development and Career Tracks for Teachers. URl:https://www.moe.gov.sg/careers/become-teachers/pri-sec-jc-ci/professional-development (14.06.2026).

8 Korean Educational Development Institute. Korean Education Statistics Service. URl: https://kess.kedi.re.kr/eng/ (14.06.2026).

9 OECD (2020). Education Policy Outlook in Estonia. OECD Education Policy Perspectives, No. 13. URl: https://doi.org/10.1787/9d472195-en (14.06.2026).

Tahlil qilingan davlatlar tajribasi pedagoglarni qo‘llab-quvvatlash siyosatining bir nechta umumiy xususiyatlarini ko‘rsatadi:

pedagoglik kasbining jozibadorligini oshirish;

kasbiy rivojlanishning uzluksiz tizimini shakllantirish;

natijaga asoslangan rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish;

pedagoglarga akademik avtonomiya berish;

raqamli kompetensiyalarni tizimli rivojlantirish;


ortiqcha byurokratik yuklamani qisqartirish.

Shu nuqtai nazardan, akademik litseylar tizimida ham pedagoglarning kasbiy rivojlanishi, mehnatdan qoniqishi va natijaviy faoliyatini rag‘batlantirishga qaratilgan kompleks yondashuvlarni kuchaytirish ta’lim sifatini yanada oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

IV. ASOSIY XULOSALAR VA TIZIMLI MUAMMOLAR

O‘qituvchilar so‘rovnomasi natijalariga ko‘ra, akademik litseylar tizimi samaradorligi umumiy jihatdan ijobiy baholangan. Xususan, o‘quvchilarning oliy ta’lim tashkilotiga kirish samaradorligi **83 foizni** tashkil etgan bo‘lib, respondentlarning **99,7 foizi** akademik litseylar o‘z vazifasini to‘liq yoki asosan bajarayotganini qayd etgan.

Shu bilan birga, **o‘quv dasturlarini doimiy yangilash 93,6 foiz** ijobiy baholangan bo‘lsa, xalqaro malaka oshirish va stajirovkalar bilan qamrov **56,1 foizni** tashkil etdi. Bu esa pedagoglarning xalqaro tajribasini kengaytirish bo‘yicha hali katta rivojlanish salohiyati mavjudligini ko‘rsatadi.



24-rasm. Asosiy xulosalar va tizimli muammolar.

Manba: 2026-yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari hisob-kitoblari.

O‘qituvchilar fikriga ko‘ra, tizimni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari **moddiy-texnik bazani kuchaytirish** (34,6 foiz) va **o‘quv dasturlarini zamonaviylashtirish** (31,8 foiz) hisoblanadi.

Akademik litseylar faoliyati bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil natijalari ta’lim tizimida **bir qator takrorlanuvchi** va o‘zaro bog‘liq tizimli **muammolar** mavjudligini ko‘rsatadi. Ushbu muammolar ta’lim jarayonining alohida elementlari emas, balki uning mazmuni, tashkiliy modeli va resurs ta’minoti bilan bog‘liq kompleks xarakterga ega.

Eng muhim muammolardan **biri – amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarining yetarli darajada tashkil etilmaganligi** hisoblanadi.

Garchi umumiy ijobiy baholar ustun bo‘lsa-da, o‘quvchilarning sezilarli qismi amaliy komponentni «**kam**» yoki «**qisman yetarli**» deb baholagan.

Bu ta’lim jarayonida nazariy bilimlar ustunlik qilayotganini va ularni amaliyot bilan bog‘lash mexanizmlari barcha litseylarda bir xil darajada ishlamayotganini ko‘rsatadi.

Ikkinchi muhim muammo – **zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishda barqarorlikning yo‘qligi**.

Ayrim hududlarda yuqori natijalar qayd etilgan bo‘lsa-da, boshqa hududlarda «**o‘rtacha**» va hatto salbiy baholar ulushi sezilarli.

Bu ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish jarayoni tizimli emas, balki parchalangan holda amalga oshirilayotganini anglatadi.

Uchinchi muammo – **o‘quv dasturlarining amaliy ehtiyojlar va zamonaviy talablar bilan to‘liq uyg‘un emasligi**.

Tahlil natijalari o‘quvchilar va o‘qituvchilar tomonidan dasturlarni yangilash zarurati yuqori baholanganini ko‘rsatadi.

Bu esa mavjud o‘quv mazmuni ma’lum darajada eskirayotgani yoki mehnat bozori va oliy ta’lim talablariga to‘liq mos kelmasligini anglatadi.

To‘rtinchi muhim muammo – **pedagoglarning xalqaro malaka oshirish va stajirovka imkoniyatlarining cheklanganligi**.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, ko‘plab pedagoglar uchun bunday imkoniyatlar mavjud emas yoki kam hollarda amalga oshiriladi.

Bu esa ta’lim tizimida zamonaviy metodikalar, xalqaro tajriba va innovatsion yondashuvlarning keng joriy etilishiga to‘sqinlik qiluvchi omil hisoblanadi.

Beshinchi muammo – **o‘quvchilar motivatsiyasi va qo‘shimcha ta’limga ehtiyojning yuqoriligi**.

O‘quvchilarning ma’lum qismi ta’lim jarayonini ijobiy baholagan bo‘lsa-da, ularning sezilarli qismi qo‘shimcha tayyorgarlik zarurligini qayd etgan.

Bu holat ta’lim jarayoni o‘quvchining individual ehtiyojlarini to‘liq qondirmayotganini va qo‘shimcha ta’lim xizmatlariga bog‘liqlik saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi.

Oltinchi muammo – ta’lim **resurslari va infratuzilmaning notekis rivojlanganligi**.

Ayrim litseylarda yuqori sharoitlar yaratilgan bo‘lsa, boshqalarida asosiy ta’lim komponentlari to‘liq ta’minlanmagan.

Bu esa ta’lim sifatida hududlar va muassasalar kesimida farqlar yuzaga kelishining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, aniqlangan tizimli muammolar akademik litseylar tizimida asosiy e’tiborni natijaviylikka qaratish orqali ta’lim jarayonining ayrim muhim komponentlari – amaliy ko‘nikmalar, zamonaviy metodikalar, individual yondashuv va pedagoglar rivojlanishi – yetarli darajada qamrab olinmayotganini ko‘rsatadi. Mazkur muammolarni bartaraf etish ta’lim tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqishning asosiy sharti hisoblanadi.

V. YAKUNIY XULOSA

O‘tkazilgan umummilliy so‘rovnoma natijalari akademik litseylarda ta’lim sifati va ta’lim muhiti umumiy jihatdan yuqori darajada shakllanganini ko‘rsatdi.

Xususan, dars sifati, baholash tizimining shaffofligi, o‘qituvchilarning kasbiy salohiyati hamda o‘quvchilarni oliy ta’limga tayyorlash bo‘yicha ijobiy baholar ustunlik qildi. Shu bilan birga, tahlillar ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi ayrim tizimli muammolar saqlanib qolayotganini ko‘rsatdi.

Birinchidan, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish darajasi barcha akademik litseylarda bir xil emas. Ayrim ta’lim muassasalarida nazariy ta’limning ustunligi o‘quvchilarning amaliy kompetensiyalari va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini cheklamoqda.

Ikkinchidan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli ta’lim vositalari va innovatsion metodlarni joriy etish darajasi hududlar hamda akademik litseylar kesimida farqlanmoqda. Bu yo‘nalishdagi ishlarni tizimli tashkil etish zarur.

Uchinchidan, ayrim o‘quv dasturlarini mehnat bozori, raqamli iqtisodiyot va oliy ta’lim talablari bilan yanada uyg‘unlashtirish, ularning mazmunini muntazam yangilash, amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish hamda zamonaviy kompetensiyalarni kengroq integratsiya qilish zarur.

To‘rtinchidan, pedagoglarning xalqaro stajirovka va malaka oshirish imkoniyatlarini kengaytirish, ilg‘or xorijiy tajriba va innovatsion metodikalarni ta’lim jarayoniga faolroq joriy etish talab etiladi.

Beshinchidan, o‘quvchilarning individual qobiliyatlari va ta’lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda qo‘shimcha ta’lim, psixologik xizmat, kasbga yo‘naltirish va akademik maslahat mexanizmlarini yagona tizim asosida rivojlantirish zarur.

Umuman olganda, akademik litseylarda erishilgan ijobiy natijalarni mustahkamlash bilan birga, amaliy ta’limni kengaytirish, o‘quv dasturlarini zamonaviylashtirish, pedagoglarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, raqamli ta’lim muhitini takomillashtirish va o‘quvchilarning individual rivojlanishiga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni davom ettirish maqsadga muvofiq.

VI. FOYDALANILGAN MANBALAR

I. Normativ-huquqiy manbalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi «Ta’lim sifatini ta’minlash va ta’lim xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF–76-son Farmoni

URL: https://lex.uz/docs/7513052

II. Rasmiy ma’lumot va tasnif manbalari

2. OECD. *Education at a Glance 2025.*

URL: https://www.oecd.org/education/education-at-a-glance/

3. UNESCO. *Global Education Monitoring Report.*

URL: https://www.unesco.org/gem-report/en

4. The World Bank. *Human Capital Project.*

URL: https://www.worldbank.org/en/publication/human-capital

5. World Economic Forum. *Future of Jobs Report 2025.*

URL: https://www.weforum.org/reports/the-future-of-jobs-report-2025/

6. UNESCO Institute for Statistics (UIS). *Global Participation in Tertiary Education.*

URL: https://uis.unesco.org

7. International Telecommunication Union (ITU). *Facts and Figures 2025.*

URL: https://www.itu.int/itu-d/reports/statistics/

8. OECD. *PISA 2022 Results: Student Well-being and School Climate.*

URL: https://www.oecd.org/pisa/publications/pisa-2022-results.htm

III. Xalqaro metodologik va qiyosiy manbalar

9. OECD. School Leadership for Learning.

10. OECD. Equity and Quality in Education: Supporting Disadvantaged Students and Schools.

11. OECD. Teachers Matter: Attracting, Developing and Retaining Effective Teachers.

12. Finnish National Agency for Education. Education in Finland.

13. Singapore Ministry of Education. Teacher Growth Model.

14. Korean Educational Development Institute (KEDI). Education Indicators in Korea.

15. OECD. Education Policy Outlook: Estonia.

Muallif*: Jakbarov Sardor*
Lavozimi: *Post-akkreditatsiya monitoringini yuritish guruhi rahbari*

Muallif*: Ismailov Nuriddin*
Lavozimi*: Post-akkreditatsiya monitoringini yuritish guruhi bosh inspektori*



NATIONAL QUALITY ASSURANCE AGENCY FOR EDUCATION

NQAAE

UNDER THE ADMINISTRATION OF THE PRESIDENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

+998 55 505 30 30

info@nqaae.uz
www.nqaae.uz

@nqaaeuz

@nqaaeuzbot